

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

KORRUPSIYAGA QARSHI ICHKI NAZORAT TIZIMI NIZOMI

2025

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimi faoliyati to‘g‘risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) sektorining (keyingi o‘rinlarda – komplayens-nazorat) maqsadlari, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1. Komplayens-nazorat o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, o‘zi faoliyat yuritayotgan davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining qarorlari va buyruqlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

2. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) komplayens-nazorati korrupsiyani erta aniqlash va oldini olish, uning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha choralar ko‘rish uchun javobgardir.

2-bob. Universitetda komplayens-nazorat sektorini tashkil etish

3. Komplayens-nazorat o‘z faoliyatida bevosita Universitet rektori va Kuzatuv kengashiga bo‘ysunadi.

4. Komplayens-nazorat rahbarlari Universitetga ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi.

3-bob. Komplayens-nazoratning asosiy maqsadi, vazifalari va funksiyalari

5. Universitetda komplayens-nazoratning asosiy maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro ISO 37001:2016 standarti talablariga javob beradigan kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiya holatlarini erta aniqlash va ularning sabablari hamda shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida Universitet xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, Universitetda korrupsiyaga qarshi profilaktik choralarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta’minlashdan iborat.

6. Komplayens-nazoratning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini takomillashtirish;
– Universitetda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish;
– Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali faoliyat yuritishini ta’minlash va monitoring qilish;
– korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qilish.

7. Komplayens-nazorat o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini takomillashtirish sohasida:

– Universitetda korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishga qaratilgan ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;
– Universitetning korrupsiyaga qarshi choralarini ishlab chiqadi va Universitet rahbariyatiga tasdiqlash uchun kiritadi;
– Universitet faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;
– Universitet tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi choralar loyihalarining Universitetning korrupsiyaga qarshi siyosatiga muvofiqligi, maqbulligi va dolzarbligini baholaydi hamda xulosa beradi;
– Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) kiritadi.

b) Universitetda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish sohasida:

– Universitetdagi korrupsiyaviy xavflarni baholaydi, uning natijalari asosida aniqlangan xavflarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va Universitetdagi korrupsiyaviy xavfi yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini shakllantiradi;
– Universitetda shunga o‘xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida boshqa davlat organlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishi holati va tendensiyalari to‘g‘risida ma’lumot to‘playdi;
– Universitet xodimlaridan maxsus axborot-kommunikatsiya kanallari orqali korrupsiyaviy xavflar va huquqbuzarliklar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni tahlil qiladi hamda ularning belgilangan tartibda

ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi;

- korrupsiya faktlari yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning Universitetda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reyestrida yoki o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlarini qayd etuvchi boshqa tegishli hujjatda to‘g‘ri va to‘liq aks ettirilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilishda hamda Universitet bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirishda ishtirok etadi;
- Universitet xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tushuntirishlar va tavsiyalar beradi;
- korrupsiya faktlari haqida xabar berish uchun mo‘ljallangan maxsus axborot-kommunikatsiya kanallari faoliyati natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni Universitet rahbariyatiga yetkazadi;
- Universitet faoliyatidagi korrupsiya faktlari va xavflarini aniqlash maqsadida aholi va xodimlar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazadi;
- korrupsiyaga qarshi talab va normalarni buzganlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan intizomiy choralarning mutanosibligi va adekvatligini nazorat qiladi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Universitetda korrupsiya holatlari yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalarini tahlil qiladi;
- har chorakda hisobot taqdim etadi, Universitet rahbariyatining so‘roviga ko‘ra esa Universitetning yuqori rahbariyatiga Universitetda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va muassasadagi korrupsiya holati to‘g‘risida ma’lumot beradi.

v) Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali faoliyat yuritishini ta’minlash va uni nazorat qilish sohasida:

- davlat korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarida Universitetga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini monitoring va nazorat qiladi;
- Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining xalqaro ISO 37001:2016 standarti talablariga muvofiqligini ta’minlaydi;
- Universitet xodimlarining korrupsiyaga qarshi normalar bo‘yicha malakasini oshirish o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- Universitet xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavfi yuqori bo‘lgan lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha o‘quv materiallarini ishlab chiqadi;
- Universitetning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi o‘qitish

o‘tkazilishi va ularning unda o‘quv dasturiga muvofiq ishtirok etishini nazorat qiladi;

- Universitet xodimlari va fuqarolar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibot tadbirlarida ishtirok etadi;
- Universitet rasmiy veb-saytidagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘limi hamda uning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtirilgan ma’lumotlarning yangilanib borilishini ta’minlaydi;
- Universitet xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi hamda Universitetning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlariga rioya etilishini monitoring va nazorat qiladi;
- Universitetda korrupsiya faktlari yuzasidan xizmat tekshiruvlarini boshlaydi va ularda ishtirok etadi;
- odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini hal etish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi;
- monitoring, xizmat tekshiruvlari va o‘tkazilgan nazorat tadbirlari natijalari asosida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;
- Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ul bo‘linmalar (shaxslar) bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferensiyalar, kengashlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi;
- Universitet faoliyatining uning korrupsiyaga qarshi ichki hujjatlari va xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazadi.

g) korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qilish sohasida:

- xodimlar va talabalarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha choralarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- Universitetning korrupsiyaga qarshi choralarini takomillashtirishga tegishli mutaxassislarni jalb etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;
- korrupsiyaviy harakatlarga barham berish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha choralarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi.

Komplayens-nazorat qonunchilikka muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

8. Komplayens-nazorat sektori xodimlariga ushbu Nizom va boshqa

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalarni yuklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

4-bob. Komplayens-nazorat sektorining huquq va majburiyatlari

9. Komplayens-nazorat sektori o‘ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

- Universitet xodimlaridan o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha tahliliy materiallar, xulosalar, statistik va boshqa ma’lumotlarni olish;
- xizmat vazifalarini bajarish doirasida Universitet xodimlaridan zarur ko‘maklashishni so‘rash va olish;
- Universitet xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazish;
- Universitet rahbariyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;
- Universitetning korrupsiya masalalari bo‘yicha yig‘ilishlarida ishtirok etish;
- tekshiruvlar o‘tkazish, hujjatlarni so‘rash va xodimlardan yozma tushuntirishlar olish.

Komplayens-nazorat sektori qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

10. Komplayens-nazorat sektori o‘ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:

- ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida yuklatilgan funksiyalarni lozim darajada va samarali bajarish;
- qonunchilik hujjatlari talablariga qat’iy rioya qilish va o‘z vakolatlari doirasidan chetga chiqmaslik;
- Universitetda jinoyat alomatlari, xususan, korrupsiya faktlari aniqlanganligi to‘g‘risida yuqori turuvchi organ, Agentlik va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarni bevosita darhol xabardor qilish;
- Universitetning korrupsiyaga qarshi siyosati va korrupsiyaga oid odob-axloq qoidalari buzilishi to‘g‘risida Universitet rahbariyatiga ma’lumotnomalar taqdim etish;
- har chorakda, keyingi chorakning birinchi oyining dastlabki o‘n kunligida Agentlikka korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va ko‘rilgan choralar to‘g‘risida hisobot taqdim etish.

Komplayens-nazorat xodimi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

11. Komplayens-nazorat sektori faoliyatining samaradorligi Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorlik va maqsadli

koʻrsatkichlariga erishish natijalari asosida baholanadi.

Komplayens-nazorat sektorining maqsadli koʻrsatkichlari Universitetning birinchi rahbari – rektor tomonidan tasdiqlanadi.

Komplayens-nazorat sektori samaradorligining maqsadli koʻrsatkichlariga erishilishi ustidan nazorat Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

12. Ushbu Nizom talablarini buzishda aybdor boʻlgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar boʻladi.

ilova

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida (keyingi o‘rinlarda – Universitet) manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, uning oldini olish va hal etish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom qoidalari egallab turgan lavozimi va bajaradigan xizmat vakolatlaridan qat’i nazar Universitetning barcha xodimlariga nisbatan tatbiq etiladi.

3. Ushbu Nizom Universitetda yuzaga kelgan va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni boshqarish masalalari bo‘yicha asosiy ichki hujjat hisoblanadi hamda barcha xodimlar tomonidan so‘zsiz rioya etilishi shart.

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

affillangan shaxslar – Universitet xodimlari va Universitetga murojaat qiluvchi har qanday shaxslar;

oshna-og‘aynigarchilik – do‘stlar va yaqin kishilarga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida xizmat mavqei va obro‘sidan foydalanish;

manfaatlar to‘qnashuvi – Universitet xodimining shaxsiy manfaatdorligi (bevosita yoki bilvosita) uning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, Universitet, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish – xodimlar tomonidan potensial yoki real manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish tartibi;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish – manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda Universitet xodimlari tomonidan xizmat majburiyatlarining lozim darajada bajarilmasligi yoki ularning manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa manfaatlari) Universitet manfaatlaridan ustun qo‘yilishi xavfini kamaytirish yoki bartaraf etish;

mahalliychilik – shaxsni lavozimga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiqligini inobatga olmagan holda, uning kelib chiqishi (taniqli oila yoki sulolaga mansubligi) yoxud yaqin qarindoshlarining egallab turgan lavozimi sababli ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash;

yaqin qarindoshlar – qon-qarindoshlik yoki quda-andachilik munosabatlaridagi shaxslar, ya’ni ota-onalar, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotinlar, farzandlar, shu jumladan farzandlikka olinganlar, buvi va bobolar, nevaralar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari.

2-bob. Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish prinsiplari

5. Universitet xodimlari manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish masalalarida quyidagi asosiy prinsiplarga amal qilishlari shart:

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi;
- davlat manfaatlarining shaxsiy manfaatlardan ustuvorligi;
- qarorlarni ochiqlik, vijdonlilik va xolislik asosida qabul qilish;
- manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan profilaktik choralar ustuvorligi;
- manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini ko‘rib chiqish va hal etishda kollegiallik;
- manfaatlar to‘qnashuvi alomatlari mavjud bo‘lgan vaziyatlarni ko‘rib chiqish, baholash va hal etishda xolis yondashuv;
- manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning belgilangan tartibda maxfiyligini ta’minlash;
- shaxsiy javobgarlik va jazoning muqarrarligi.

3-bob. Xodimlarning majburiyatlari va vakolatlari

6. Xodimlar o‘z xizmat vazifalarini bajarishda ushbu Nizomda belgilangan prinsiplarga amal qilishlari, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan o‘zlarini tiyishlari shart.

7. Xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida Universitet xodimlari Universitet manfaatlariga zid bo‘lgan yoki zid bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatlari to‘g‘risida Universitetda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat faoliyati uchun mas’ul shaxsni xabardor qilishlari shart.

8. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida xodim quyidagi hollarda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berishi shart:

- xodimning bevosita bo‘ysunuvchisi uning yaqin qarindoshi yoki affillangan shaxsi bo‘lsa;
- xodim yaqin qarindoshlari yoki affillangan shaxslari bo‘lgan xodimlarga nisbatan qarorlar qabul qilishda (shu jumladan ish haqini hisoblash va to‘lash, mukofotlar, ustamalar berish va ularning

miqdorini belgilashda) ishtirok etsa.

9. Manfaatlar to‘qnashuvi quyidagicha tartibga solinadi:

- ishga qabul qilishda xodimlar ushbu Nizom talablari bilan imzo qo‘ydirilgan holda tanishtiriladi;
- manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan choralarni o‘rganish, baholash va belgilash Kadrlar bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

10. Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lganda quyidagi choralar ko‘rilishi mumkin:

- xodimning lavozim majburiyatlarini qayta ko‘rib chiqish yoki o‘zgartirish;
- xodimning shaxsiy manfaatlari bilan bog‘liq ma’lumotlardan foydalanishni cheklash;
- agar xodimning shaxsiy manfaatlari uning xizmat majburiyatlariga zid bo‘lsa, uni manfaatlar to‘qnashuviga daxldor bo‘lmagan boshqa lavozimga o‘tkazish;
- agar xodimning shaxsiy manfaatlari Universitet faoliyati yoki manfaatlariga zid bo‘lsa va boshqa tartibga solish choralarini qo‘llashning imkoni bo‘lmasa, xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilish.

4-bob. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish va ko‘rib chiqish tartibi

1-§. Manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilishning umumiy qoidalari

11. Universitetda manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilishning quyidagi shakllari orqali amalga oshiriladi:

- Universitetdagi bo‘sh lavozimlarga nomzodlarni tayinlash va rotatsiya qilishda manfaatlar to‘qnashuvini dastlabki oshkor qilish;
- real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish.

2-§. Bo‘sh lavozimlarga nomzodlarni tayinlash va rotatsiya qilishda manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish

12. Universitetda bo‘sh lavozimlarga nomzodlarni va xodimlarni tayinlash hamda rotatsiya qilishda manfaatlar to‘qnashuvini dastlabki deklaratsiya qilish Kadrlar bo‘limiga ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq shakldagi ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash va rotatsiya jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risidagi arizani taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Xodim tomonidan taqdim etilgan hujjatlar Kadrlar bo‘limi tomonidan

manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi yuzasidan tekshiriladi. Manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanganda Kadrlar bo‘limi bu haqda Universitet rektorini yoki nomzod ishga qabul qilinishi yoxud rotatsiya qilinishi kutilayotgan tarkibiy bo‘linma faoliyatini muvofiqlashtiruvchi rahbarni xabardor qiladi.

Rahbarning topshirig‘iga ko‘ra Kadrlar bo‘limi Universitetning tegishli bo‘linmalari bilan birgalikda manfaatlar to‘qnashuvini hal etish choralarini ko‘radi.

3-§. Manfaatlar to‘qnashuvini har yili deklaratsiya qilish

13. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har yili deklaratsiya qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Universitet xodimlari har yili 15-fevralga qadar ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq shakldagi manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risidagi arizani to‘g‘ri to‘ldirib, Kadrlar bo‘limiga taqdim etadilar;
- Kadrlar bo‘limi 10-martga qadar manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini ko‘rsatgan xodimlarni aniqlash maqsadida kelib tushgan arizalarni tahlil qiladi;
- agar tahlil natijasida faoliyati manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan xodimlar aniqlansa, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar Universitetning Odob-axloq komissiyasiga taqdim etiladi;
- Universitetning Odob-axloq komissiyasi 20-martga qadar xodimning bevosita rahbari va (zarur hollarda) xodimning o‘zi ishtirokida manfaatlar to‘qnashuvi holatini ko‘rib chiqadi hamda manfaatlar to‘qnashuvi alomatlari mavjud bo‘lgan vaziyatni hal etish choralarini ishlab chiqish yoki manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Ushbu qaror komissiya bayonnomasiga kiritiladi va unda choralarni ishlab chiqish uchun mas’ul bo‘linma (mansabdor shaxs) belgilanadi;
- Kadrlar bo‘limi 25-martga qadar manfaatlar to‘qnashuvi holatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ushbu Nizomga 4-ilovaga muvofiq shakldagi Manfaatlar to‘qnashuvi holatlari reyestriga kiritadi va ularni elektron shaklda saqlaydi;
- Universitet Kadrlar bo‘limi har yili birinchi chorakda manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish, aniqlash va hal etish bo‘yicha statistik tahlilni korrupsiyaga qarshi ichki nazorat sektoriga (keyingi o‘rinlarda – komplayens-nazorat) va Universitet rektoriga taqdim etadi.

4-§. Real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganligi to‘g‘risida

deklaratsiya topshirish

14. Real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni deklaratsiya qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Universitet xodimida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda, u ushbu vaziyatdan xabar topgan paytdan e’tiboran bir ish kuni ichida bu haqda o‘zining bevosita rahbarini ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shaklda, real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi sifatida baholanadigan vaziyatni batafsil bayon qilgan holda xabardor qilishi shart;
- xodimning bevosita rahbari yozma xabarnomani olgan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotni ko‘rib chiqishi va manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish bo‘yicha taklif bilan xabarnomani ro‘yxatga olish va tegishli choralar ko‘rish uchun Kadrlar bo‘limiga taqdim etishi shart;
- Kadrlar bo‘limi xodimning bevosita rahbari bilan birgalikda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘radi yoki manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emas degan xulosaga kelgan holda, tegishli ma’lumotni yozma shaklda komplayens-nazorat sektoriga va Universitet rektoriga taqdim etadi.

5-bob. Manfaatlar to‘qnashuvini hal etish choralari

15. Universitet manfaatlari buzilishining oldini olish maqsadida real manfaatlar to‘qnashuvini hal etish choralari imkon qadar qisqa muddatda amalga oshirilishi lozim.

16. Universitetda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarishda quyidagi choralar belgilanadi:

- bevosita bo‘ysunuvchi xodimni yaqin qarindoshi bo‘lmagan boshqa shaxsning bo‘ysunuviga o‘tkazish;
- xodimni manfaatlar to‘qnashuvi predmeti bo‘lgan masalalarni muhokama qilish va ular bo‘yicha qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishdan ixtiyoriy ravishda chetlashishi (o‘z-o‘zini rad etishi) yoki majburiy (doimiy yoki vaqtincha) chetlashtirish;
- manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida xodimning xizmat majburiyatlari hajmini qayta ko‘rib chiqish;
- xodimning shaxsiy manfaatiga daxldor bo‘lgan va manfaatlar to‘qnashuvi predmeti hisoblangan Universitet ma’lumotlari va hujjatlaridan foydalanishini cheklash;
- yuqori lavozimni egallab turgan yaqin qarindosh va (yoki) affillangan shaxsga nisbatan lavozimini oshirish, faoliyatini baholash, mukofotlar to‘lash va ish haqiga ustamalar hisoblash, xorijga o‘qish va malaka

oshirishga yuborish, ta’til berish, ish haqini nazorat qilish va boshqa masalalar bo‘yicha qarorlarning kollegial qabul qilinishini ta’minlash;

- xodimni manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq bo‘lmagan mehnat funksiyalarini bajarishni nazarda tutuvchi lavozimga o‘tkazish va boshqa choralar.

17. Istisno hollarda, agar ushbu Nizomning 10-bandida sanab o‘tilgan choralar manfaatlar to‘qnashuvini to‘liq hal etmasa, quyidagi choralar ko‘rilishi mumkin:

- xodimning Universitet manfaatlariga zid bo‘lgan shaxsiy manfaatdan voz kechishi;
- xodim Universitet manfaatlariga zid bo‘lgan shaxsiy manfaatlardan voz kechmagan taqdirda u bilan mehnat shartnomasini bekor qilish.

18. Har bir holatda manfaatlar to‘qnashuvi predmetidan kelib chiqqan holda, xodim va Universitet o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra uni hal etishning boshqa choralari ham qo‘llanilishi mumkin. Ko‘rilgan barcha choralar qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lishi va ushbu Nizomda belgilangan prinsiplarning amalga oshirilishini ta’minlashi lozim.

19. Universitetda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish bo‘yicha Kadrlar bo‘limi va xodimning bevosita rahbari tomonidan ko‘rilgan choralar va qabul qilingan qarorlar Odob-axloq komissiyasining navbatdagi yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi hamda yig‘ilish bayonnomasida aks ettiriladi.

20. Komplayens-nazorat Kadrlar bo‘limi, xodimning bevosita rahbari, shuningdek, odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini hal etish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini rahbarning e’tirozlari yoki topshiriqlari asosida, shuningdek, o‘z tashabbusi bilan tekshirish huquqiga ega.

6-bob. Reyestrni yuritish va saqlashga qo‘yiladigan talablar

21. Kadrlar bo‘limi manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini Reyestrga kiritish orqali ularni o‘z vaqtida va to‘liq hisobga olib borishi shart. Reyestr har chorakda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat sektoriga taqdim etiladi.

22. Ma’lumotlar quyidagi hollarda Reyestrga kiritilishi shart:

- Universitetga ishga kirishda – nomzod arizada manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligini ko‘rsatadi, Universitet rektori esa manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkinligini tasdiqlaydi;
- tayinlash yoki rotatsiya qilishda manfaatlar to‘qnashuvi oshkor qilinganda – Universitet rektori tomonidan buyruq imzolangan kundan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay;
- manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda – Kadrlar bo‘limi va xodimning

bevosita rahbari tomonidan choralar koʻrilgan taqdirda;

- Universitet xodimlari tomonidan manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar har yili deklaratsiya qilinganda – ushbu Nizomning 13-bandiga muvofiq;
- aloqa kanallari orqali kelib tushgan manfaatlar toʻqnashuvi mavjudligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar tasdiqlanganda;
- ichki xizmat tekshiruvlari va Universitetning korrupsiyaga qarshi siyosati va talablariga rioya etilishi monitoringi natijalariga koʻra, shuningdek, Universitet rektorining maʼlumotlarni Reyestrga kiritish toʻgʻrisidagi bevosita topshirigʻiga koʻra.

23. Xodimlarning manfaatlar toʻqnashuviga oid arizalari va xabarnomalari, shuningdek, boshqa maʼlumotlar Kadrlar boʻlimida saqlanadi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

24. Barcha xodimlar egallab turgan lavozimidan qatʼi nazar ushbu Nizom talablariga rioya etilishi, shuningdek, oʻz manfaatlarining har qanday toʻqnashuvi toʻgʻrisida Universitetni oʻz vaqtida va toʻliq xabardor qilish uchun shaxsan javobgardir.

25. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar boʻladi.

3-ilova

Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish hamda ularga qarshi kurashda faol ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga (keyingi o‘rinlarda – Universitet) kelib tushgan korrupsiya to‘g‘risidagi xabarlar bilan ishlashning asosiy prinsiplarini, xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish va Universitet rektoriga taqdim etish tartibini, shuningdek, ularni ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish va korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

ishonch telefoni – Universitetga telefon orqali kelib tushgan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, ularning o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini nazorat qilish imkonini beruvchi tizim;

arizachi – Universitetdagi korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida ma’lumot bergan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxs tomonidan mansab yoki xizmat majburiyatlarining lozim darajada bajarilishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud boshqa shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaviy harakatlar – xodimning bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali o‘z xizmat vakolatlaridan pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat qilish yoki harakatsizlik uchun qonunga xilof ravishda foydalanishi, shu jumladan pul, qimmatli qog‘ozlar, boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xususiyatga ega xizmatlarni olishi, talab qilishi, tovlamachilik qilishi, taklif etishi yoki taqdim etishi, pora berishi va (yoki) olishi yoxud bunda vositachilik qilishi, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirishi va boshqa noqonuniy maqsadlar;

korrupsiyaviy huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan,

sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarning korrupsiyaviy buzilishlarini bartaraf etish bo‘yicha Universitet xodimlari faoliyatining yuqori professional va axloqiy darajasini ta’minlovchi choralar majmui;

korrupsiyaviy xavf – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Universitet nomidan va (yoki) uning manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishi xavfi;

tegishli xabar – Universitetdagi korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan xabar;

xodim – Universitet bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodimning xizmat majburiyatlarini bajarishda o‘zi yoki uchinchi shaxslar manfaatlarini ko‘zlab pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlar) olish imkoniyati bo‘lib, u xodim tomonidan mansab yoki xizmat majburiyatlarining lozim darajada bajarilishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin;

rag‘batlantirish – xodimni korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda faol ishtirok etgani, yuqori professionalligi, qonuniylik talablariga rioya etgani va qasamyodga sodiqlik namunasini ko‘rsatgani uchun qo‘llab-quvvatlash maqsadida taqdirlash.

3. Universitet korrupsiyaviy faoliyat to‘g‘risida xabar berish uchun mo‘ljallangan kanallar ishini quyidagi prinsiplar asosida tashkil etadi:

maxfiylik va xavfsizlik – mavjud kanallar orqali kelib tushgan xabarlardan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan Universitetning barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni begona shaxslarga berish (oshkor qilish) huquqiga ega emas. Agar arizachi xabarni o‘z xohishiga ko‘ra, shu jumladan ehtiyotsizlik oqibatida boshqa xodimlar yoki uchinchi shaxslarga oshkor qilgan bo‘lsa, Universitet uning oshkor bo‘lishi uchun javobgar emas;

qonuniylik – Universitet aloqa kanallari orqali kelib tushgan korrupsiya to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, ishlov berish va ko‘rib chiqish qat’iy ravishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi;

arizachini ta’qib qilmaslik – korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida ixtiyoriy ravishda xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, xususan, Universitet xodimi xabarning mazmunidan qat’i nazar hech qanday javobgarlikka tortilmaydi;

arizachi bilan majburiy qayta aloqa – agar xabar anonim bo‘lmasa, uni ko‘rib chiqish natijalari Universitet tomonidan arizachiga yetkazilishi shart;

ta’sir choralarini qo‘llashning majburiyligi – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda Universitet aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.

2-bob. Korrupsiyaviy faoliyat to‘g‘risida xabar berish

4. Tegishli xabar quyidagi aloqa kanallari orqali yuborilishi mumkin: (+99871) 267-07-06 telefon raqami, Telegram messenjeridagi @uwed anticorruption bot telegram-boti, anticorruption@uwed.uz elektron pochtasi yoki komplayens-nazorat sektoriga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish orqali.

5. Xabarlar ushbu Nizomda ko‘rsatilmagan boshqa aloqa kanallari orqali ham yuborilishi mumkin.

6. Universitet aloqa kanallari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zining rasmiy veb-saytida, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va kanallarida joylashtiradi, xodimlarga muntazam yuboriladigan elektron xabarnomalar va o‘quv materiallariga kiritadi, Universitet binosida joylashtirilgan plakatlarda aks ettiradi va hokazo.

3-bob. Mavjud kanallar orqali kelib tushgan korrupsiya holatlari to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish

7. Universitet aloqa kanallari orqali kelib tushgan tegishli xabarlarni ko‘rib chiqish uchun Universitetning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat sektori (keyingi o‘rinlarda – komplayens-nazorat) javobgardir.

8. Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risidagi xabarlar Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlari, davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom hamda Universitetning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi nizomi talablarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olinadi va rezolyutsiya qo‘yish uchun Universitet rahbariga taqdim etiladi.

9. Universitetga ijtimoiy tarmoqlar orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish uchun komplayens-nazorat sektori xodimi mas’ul etib tayinlanadi. Xabar kelib tushganda mas’ul xodim arizachi bilan elektron shaklda yoki telefon orqali bog‘lanadi, zarur ma’lumotlarni aniqlashtiradi, xabarni Reyestrda ro‘yxatga oladi va Universitet rahbariga ma’lumot beradi. Komplayens-nazorat kelib tushgan xabarlarni dushanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 gacha tahlil qiladi. Ish vaqtidan tashqari kelib tushgan xabar keyingi ish kunida ko‘rib chiqiladi.

10. Agar arizachida o‘z xabarini tasdiqlovchi qo‘shimcha materiallar (fotomateriallar, hujjatlar, audio va video yozuvlar) mavjud bo‘lsa, murojaatni

qabul qilish uchun mas’ul xodim ularni taqdim etish uchun aloqa kanallarini (telegram-bot yoki elektron pochta) ko‘rsatadi va taqdim etilgan ma’lumotlarning maxfiyligini ma’lum qiladi. Ushbu materiallar ular tegishli bo‘lgan xabarga ilova qilinadi.

11. Universitet rektori tegishli xabarni tezkor tahlil qilish va ko‘rib chiqish yuzasidan komplayens-nazoratga topshiriq beradi.

12. Komplayens-nazorat sektori tegishli xabarni olgandan keyin 1 (bir) soat ichida uni ilovaga muvofiq shakldagi Korrupsiya to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish reyestrida (keyingi o‘rinlarda – Reyestr) ro‘yxatga olishi va ushbu Nizomning 4-bobiga muvofiq ko‘rib chiqishi shart.

13. Universitet arizachilarga xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida anonim xabar qoldirish imkoniyatini beradi. Anonim xabar kelib tushganda mas’ul xodim: arizachiga xabarga javob berish uchun u bilan bog‘lanishning imkoni bo‘lmasligi mumkinligini ma’lum qilishi; zarur qo‘shimcha ma’lumotlarni olishning imkoni bo‘lmasa, xabarni to‘liq va har tomonlama o‘rganib bo‘lmasligini ko‘rsatishi; arizachiga anonim tarzda aloqada bo‘lishni (shaxsiy ma’lumotlar ko‘rsatilmagan elektron pochta manzili, Telegramdagi shaxsiy chat va boshqalar) taklif qilishi shart. Agar arizachi xabarini qaytarib olmasa, xodim uni ushbu Nizomda belgilangan tartibda qabul qilishi shart.

14. Xabarlarni ko‘rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlari ham tahlil qilinadi hamda ularning oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha keyingi choralar ko‘riladi.

15. Kelib tushgan xabarlarga oid barcha tegishli materiallar, hujjatlar va ma’lumotlar (qabul qilingan qarorlar va arizachilarga yuborilgan javoblar) Murojaatlar bilan ishlash bo‘limida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan, biroq 10 yildan kam bo‘lmagan muddat davomida saqlanishi shart.

4-bob. Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risidagi xabarlarni ko‘rib chiqish

16. Komplayens-nazorat sektoriga kelib tushgan korrupsiyaga oid xabarlar ushbu sektor tomonidan ko‘rib chiqiladi.

17. Korrupsiyaviy faoliyat to‘g‘risidagi xabarlarni ko‘rib chiqish jarayoniga harakatlari haqida xabar berilgan xodimlarni yoki ko‘rib chiqishda ishtirok etishi manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan xodimlarni jalb qilish taqiqlanadi.

18. Korrupsiya to‘g‘risidagi xabar kelib tushganda dastlabki tekshiruv xabar komplayens-nazorat sektoriga kelib tushgan kundan e’tiboran 5 (besh) ish kuni ichida o‘tkaziladi.

19. Ushbu Nizomning 18-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshiruv

natijalaridan qat’i nazar, bu haqdagi ma’lumot Reyestrga kiritiladi.

20. Agar komplayens-nazorat sektori xodimi xabar korrupsiyaga taalluqli emas degan xulosaga kelsa, ushbu xabar bir ish kuni ichida bildirgi asosida Universitetning tegishli tarkibiy bo‘linmasiga yuborilishi shart.

21. Agar xabarda korrupsiya va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida ma’lumotlar, shuningdek, xizmat tekshiruvi o‘tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, komplayens-nazorat sektori xodimi ichki hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini boshlaydi.

22. Korrupsiya to‘g‘risidagi xabarlar Universitetga kelib tushgan kundan e’tiboran bir oy ichida mazmunan ko‘rib chiqiladi. Tekshiruv o‘tkazish, qo‘shimcha materiallar so‘rash yoki boshqa choralar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda ko‘rib chiqish muddati istisno tariqasida rahbariyat tomonidan arizachini xabardor qilgan holda (anonim murojaatlar bundan mustasno) bir oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

23. Murojaatga javob komplayens-nazorat sektori tomonidan tayyorlanadi va Universitet rektori tomonidan imzolanadi.

24. Tegishli xabarlarni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra o‘rganish natijalari va qo‘llanilgan ta’sir choralari ko‘rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda arizachiga yuboriladi.

5-bob. Hisobdorlik

25. Reyestrdan komplayens-nazorat sektori xodimlari, xabarlarni ko‘rib chiqishda ishtirok etgan boshqa tegishli davlat organlari va tashkilotlarining xodimlari (faqat shunday xabarlar bo‘yicha), Universitet rektori yoki korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishini nazorat qiluvchi rahbar o‘rinbosari foydalanishi mumkin.

26. Reyestr ma’lumotlari asosida komplayens-nazorat sektori har chorakda Universitet rektoriga korrupsiyaga oid xabarlar to‘g‘risida quyidagilarni o‘z ichiga olgan hisobot taqdim etadi:

- kelib tushgan va ko‘rib chiqilgan korrupsiyaga oid xabarlar soni;
- tasdiqlangan korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risidagi xabarlar va manfaatlar to‘qnashuvi holatlari soni;
- ko‘rib chiqish muddatlari buzilgan tegishli xabarlar soni;
- tegishli xabarlarni ko‘rib chiqishning o‘rtacha muddati;
- arizachilar tomonidan eng ko‘p foydalanilgan aloqa kanallari va boshqa statistik ma’lumotlar.

6-bob. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi

kurashishda faol ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirish

27. Xodimlarning korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda faol ishtirok etishini rag‘batlantirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Universitetda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda faol ishtirok etgan, huquqbuzarliklar sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha rahbariyatga asoslantirilgan takliflar va tashabbuslar kiritgan, ushbu yo‘nalishni takomillashtirishga salmoqli ilmiy hissa qo‘shgan, xizmat faoliyatida yuksak namuna ko‘rsatgan va o‘ziga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajargan xodimlarni rag‘batlantirish;
- xodimlarning korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish.

28. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan va huquqbuzarliklarning (jinoyatlarning) oldini olish, ularga barham berish va to‘liq ochishda faol ishtirok etgan xodimlar Shaxsiy xavfsizlik bo‘limi tomonidan Universitet rektoriga taqdim etilgan bildirgi asosida rag‘batlantiriladi. Xodimlarni rag‘batlantirish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

29. Xodimlar quyidagi asoslardan biri mavjud bo‘lganda rag‘batlantirilishi mumkin:

- xodimlarga nisbatan sodir etilishi rejalashtirilgan korrupsiyaviy huquqbuzarlikning oldini olish yoki unga barham berish;
- tayyorlanayotgan korrupsiyaviy yoki boshqa huquqbuzarlik to‘g‘risida xabar berish natijasida jinoyatni aniqlash;
- jinoyatlarga barham berish va ularni to‘liq ochishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga faol ko‘maklashish;
- jamiyatda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibot va profilaktika tadbirlarida faol ishtirok etish;
- korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha rahbariyatga takliflar va tashabbuslar kiritish hamda ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish.

30. Xodimni rag‘batlantirishda, uni rahbarlik lavozimlariga yoki davlat mukofotlariga tavsiya etishda uning korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashishdagi faol ishtiroki asosiy mezon sifatida inobatga olinadi.

7-bob. Yakunlovchi qoida

31. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.